



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY AN'ANALAR RUHIDA TARBIYALASH

Yakubova Zilola Zikirovna

*Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha talim metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi*

E-mail: zilolayakubova1979@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va urf-odatlari asosida tarbiyalash, uning mohiyatini anglash va hurmat qilish, avloddan-avlodga yetkazish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lif, xalq an'analar, tarbiyachi, bolalar, milliy qadriyat, ma'naviy poklik, tarbiya usullari, ijodiy barkamollikkha erishish, etnomadaniy tarbiya, axloqiy tarbiya, urf-odatlar.

EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL TRADITIONS.

Yakubova Zilola Zikirovna

Teacher of the department "Methodology of pre-school education" at
Nizomiy TDPU zilolayakubova1979@mail.ru

Annotation: This article discusses raising preschool children based on the national values and traditions of the Uzbek people, understanding and respecting its essence, passing it on from generation to generation.

Key words: preschool education, folk traditions, educator, children, national value, spiritual purity, methods of education, achieving creative perfection, ethnocultural education, moral education, traditions.

Ayni paytda milliy madaniy an'analarni anglash, mustahkamlash va faol targ'ib qilishga qiziqish ortib bormoqda. Zamonaqiy ta'lif tizimi oldida yangi avlodlarni xalqning tarixiy xotirasi bilan tanishtirish vazifasi turibdi. O'tmishimiz bugungi kundagi barqaror, to'laqonli hayotning poydevori, kelajakdagi taraqqiyot garovidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev takidlaganidek, "Bugungi murakkab va tahlikali dunyoda yoshlar tarbiyasi biz uchun eng muhim va dolzarb vazifa bo'lib qolayotganini ota-onas, ustoz-murabbiy sifatida hammamiz



yaxshi tushunamiz. Shuning uchun ham yoshlarimizning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ta'lim-tarbiya masalasida xato qilishga hech qanday haqqimiz yo'q. Bu masalada xato qilsak, bolalarimiz, farzandlarimizga, Vatanimizga xiyonat qilgan bo'lamiz".

Sharq donishmandlari: "Har qanday xalqning olivjanobligini uch fazilat bilan bilib olsa bo'ladi: birinchi – odamlarning salomlashish odobidan; ikkinchi – kasbhunarlaridan, uchinchi – marhumlarning qabrlarini qanday ahvolda tutishlaridan", - deyishgan.

Sharqona axloqiy qoidalar sifatida, o'zbek xalqining milliy urf-odatlaridan –har bir insonda oqillik va e'tiqodlik, sharm-hayo va or – nomuslik, ziyraklik va farosatlilik, halolik va pokizalik, vazminlik va ulug'vorlik, mehnatsevarlik, bilmga, ustozlarga, ota-onaga hurmat va mehribonlik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishiga alohida e'tibor berilgan. Ma'naviy poklik – bu axloqning tamal toshidir,- deb e'tirof etilgan.

Madaniyatning, ma'naviyatning, insoniylikning, odob-axloqning ibtidosi ham, intihosi ham, avvali-yu, oxiri ham, butun mazmuni-yu mohiyati ham salom-alikdan boshlanadi. Haqiqiy insoniylik, odamiylik samimiy tabassum, ochiq chehra va dildan chiqarib salom berishdan boshlanadi. Salomlashish odamlar qalbi va mehrini o'zaro tutashtiradi, notanish odamlar salomlashish orqali tanishadilar, bir-birlariga hurmat bilan boqadilar. Sidqidildan va samimiy salom bergan kishining yuzlaridagi yog'du va ko'zlaridagi samimiy tabassum nuri alik oluvchining dilini ravshan qilib yuboradi. Kishidagi odob-axloq, ma'naviyat shular orqali namoyon bo'ladi.

Xalqimiz ijtimoiy hayotda salomlashish odobiylirkning boshi, ma'naviy yetuklik belgisi ekanligini e'tiborga olib, unga alohida e'tibor bilan qaraydi. O'zbek oilalarida bola xoh o'g'il, xoh qiz bo'lsin, go'dakligidan boshlab kattalarga salom berishga o'rgatiladi. Doimo,

- hamma joyda atrofdagilarga "assalomu alaykum" deyishni kanda qilmaydi;
- xalq ichida "yaxshi xulq", "yomon xulq" deb baholangan hatti-harakatlarni juda faol farqlaydi va o'z munosabatini bildiradi;
- barchani sizlaydi, o'zidan katta va kichikni doimo izzatlaydi;
- guruhdagi, ko'cha, mahalla, qishlog'idagi do'stlarining o'qishi, ishlaridan doimo xabardor; murabbiy-ustozni samimiy hurmat qiladi;
- uyat so'zлarni hatto urishgan paytida ham tilga olmaydi;
- bolalarni yuqoridagi sifatlarni egallashga rag'batlantiradi;
- ota-ona, oila a'zolariga mehrini so'zda ham, muomalada ham, amalda



ham, ular borliklarida ham yo‘qliklarida ham doimo namoyon qilib turadi;

- barcha qarindoshlarining ismlari, yaqinlik darajalarini mukammal biladi va faxr bilan aytib yuradi;
- aka-opasini, ota-onasi darajasida sevadi;
- ajdodlari haqida hikoya qilib bera oladi.

Maktabgacha ta’limning alohida bo’limlari (atrof-muhit bilan tanishish, nutqni rivojlantirish, axloqiy tarbiya, tabiat, bayramlar va o’yin-kulgilar haqida g’oyalarni shakllantirish va boshqalar) mazmunida milliy qadriyatlarimiz va an’analarni kiritish mumkin. Xalq an’analariaga bayramlar, marosimlar, urf-odatlar, xalq og‘zaki ijodi, xalq o‘yinlari, o‘yinchoqlar kiradi. Aynan ular bolalarni tarbiyalash va o’qitish mazmunini, asosiy axloqiy qoidalar va ideallarni, yaxshilik va yomonlikni tushunishni, muloqot va insoniy munosabatlar normalarini ochib beradi.

O‘zbek milliy qadriyatlarimizdan ertaklar, topishmoqlar, matallar, maqollar xalq donoligining haqiqiy xazinasidir. Qo’shiq, musiqa, raqslar odamlarning xarakter xususiyatlari ifodalangan tovushlar, ohang, harakatlar ritmi uyg'unligini bildiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar xalq ijodiyotiga qo’shilish orqali nafaqat xalqning tarixi, an’analari, madaniyatini o’rganadilar, balki asosiy psixologik jarayonlarning (xotira, diqqat, fikrlash, his-tuyg‘ular, muloqot qobiliyatları, kognitiv faoliyatlari) muvaffaqiyatli rivojlanishiga ham hissa qo’shadilar. O‘zbek xalqining amaliy san’atini maktabgacha yoshidagi bolalarni umuminsoniy gadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Qadriyatlar o’zining mohiyatiga ko’ra bir necha turga bo’linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo‘q joyda biron narsaning qadr qimmati haqida so’zlash bema’nilikdir.

O‘zbek xalq maqollari maktabgacha yoshdagi bolalarga faoliyatlar davomida ham qo’llaniladi. Shu bilan birga, har bir xalqning, masalan, mehnatga oid o‘ziga xos maqollari bo‘lsa-da, biroq ma’no jihatdan juda o‘xshashligiga e’tibor qaratamiz. Masalan: -Tatarlar “Mehnatsiz quyonni ushlay olmaysiz”, “Kamroq ayt - ko’p ish”, ruslar orasida - “Mehnatsiz hovuzdan baliq ham olib bo’lmaydi”, o‘zbek xalq maqollaridan esa: “mehnat mehnatning tagi rohat”, Ish ishtaxa ochar- dangasa ishdan qochar” kabi shular jumlasidandir.

Milliy o‘yinlarimiz – bolalarni hayotga tayyorlovchi benazir maktab. Bolalar 6-7 yoshdan boshlab tengdosh, tengqurlari bilan harakatli o‘yinlar o‘ynaydi. O‘yinlar davomida insoniy munosabatlar, atrof-muhit haqida ma’lumot oladi. Munosabatlarning o‘ziga xos “maktabi”dan o‘tadi. Kattaroq bolalardan o‘zlarini o‘g’il bolacha tutishni, qizchalar opalaridan u yoki bu vaziyatlarda o‘zlarini qanday



tutishni o'rganishadi. Ko'plab ijobiy fazilatlarni ham, salbiy qiliqlarga ham duch keladi. Yomonlikning oqibatlarini ham o'z darajasi va davrasida ko'radi. Intizomlilik, uyushqoqlik, irodalilik, qiyinchiliklarga chidab, yengib o'tishni, boshlagan ishni oxiriga yetkazishni, maqsadga yetish uchun bor kuchini ishga solishni, o'rganishadi. Birgalashib harakat qilishni, kurashishni, qiynalib bo'lsa-da, g'alaba qilishni mashq qilib, chiniqib, toblana borishadi.

Bular bolalarning aqliy, jismoniy, ma'naviy olamini boyitadi. Milliy o'yinlarimiz ota-bobolarimizni abjir, chidamli, irodali, dovyurak qilib tarbiyalagan. Chunki o'yin orqali turli shartli hayotiy to'siqlarni, "raqiblar"ni o'z kuchi bilan yengib o'tishga o'rgatadi va chiniqtiradi. O'yinlarda mardlik maqtalib, g'irromlik qoralangan. Xullas, o'yinlar - bolalarni katta hayotga tayyorlash, kurashishga, yengishga o'rgatishning o'ziga xos mashqlari vazifasini o'tagan. Demak, milliy o'yinlar – bolani millat farzandiga aylanishining ajralmas sharti ekan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, dono o'zbek xalqi bolalarning yoshiga, jinsiga mos, o'nlab o'yinlarni ijod qilgan. Olimlar ularni buyumli o'yinlar, buyumsiz o'yinlar, doimiy, kalendar o'yinlariga bo'lishadi. "Yashin-topoloq", "Pakka", "Qora ko'rdim", "Quvplashmachoq", "Yashinmachoq", "To'p otish", "Lappak", "Besh tosh", "Xola-xola", "Bobo taka", "Oq terakmi-ko'k terak", "Chori chambar", "Shapalak" va h.k. Xorazm, Farg'ona vodiysi, Samarqandu Surxondaryo, Qoraqalpoq bolalarining o'ziga xos o'yinlari bor. Ular bolalarning xarakteri, jismoniy va ma'naviy shakllanishi uchun "mashq maydoni" vazifasini bajargan. Bolalarimiz do'stlik, mardlik, qiynalib bo'lsa-da, g'alabaga erishishning ilk nashidalarini tuyishgan.

Milliy qadriyatlarimiz qatorida bolalarimizning milliy o'yinlarini ham sobiq sho'rolar "eskilik sarqiti" deb xo'rлади. Faqat mustaqillik bolalarimiz o'yinlarini "oqladi".

Maktabgacha yoshdag'i bolalar milliy xunarmandchilik san'ati bilan tanishadilar. Milliy xunarmandchilik san'ati o'zbek xalqining an'analarini, madaniyatini etkazish vositalaridan biridir. Unda xalqning turmush tarzi, urfodatlari, xalq hunarmandchiligi yutuqlari o'z ifodasini topgan. Xalq xunarmandchiligi orqali bola dastlab xalq amaliy san'ati bilan tanishadi hamda o'zbek xalqining go'zalligi va tarixini tushunishga o'rgatadi.

Erta bolalik davrida bola hali turli xil faoliyatga qodir emas, shuning uchun birinchi bosqichda barmoq o'yinlari eng qulay vositadir. Har qanday bunday o'yinda, qo'llarni mashq qilishdan tashqari, nutq markazlarining rivojlanishi sodir bo'ladi, chunki o'yin, albatta, qofiyalangan matnni talaffuz qilish va kuylash bilan birga



keladi. Nutq ohangi bilan birinchi tanishuv sodir bo'ladi. An'anaviy milliy urf odatlarimizdan tashqari rivojlantiruvchi markazlarda maktabgacha yoshdag'i bolalar bilan syujetli-rolli va saxnalashtirish markazida "sartarosh", "mehmon-mehmon", "do'kon", "Lolaxon mehmonda", "Oshxona", "Shifoxona", "Yo'l harakati", "Hunarmandchilik", "Tikuvchilik", "Quruvchilar", "Kutubxona", "Maktab" o'yinlarida qo'g'irchoqlar alohida o'r'in tutadi. Qadim zamonlardan beri latta qo'g'irchoq o'zbek xalqining an'anaviy o'yinchog'i bo'lib kelgan. Qo'g'irchoqlar bilan o'ynash kattalar tomonidan rag'batlantirildi, chunki ular bilan o'ynab, bola uy ishlarini boshqarishni o'rgandi, oila qiyofasini oladi, qo'g'irchoq o'yinlarida bolalar beixtiyor kiyinish, qo'l yuvish, dasturxon atrofida o'tirish, nonushta qilish odobini o'rganadilar, an'anaviy kiyinish san'atini angladilar, ularda matonat, tejamkorlik, chiroysi xusni-xulq, mehr-muhabbat kabi fazilatlar tarbiyalanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, etnomadaniy tarbiya bo'yicha olib borilayotgan ishlarning barcha uslub va usullari xilma xildir. Ishonchim komilki, bu ish barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi.

"Tarixni bilmay turib- kelajakni qurib bo'lmaydi". Darxaqiqat bu hikmatli gap bejizga aytilmagan. Bolalar bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi. Yosh avlodni ma'nан boy va axloqiy tarbiyalash, ularni o'tmishimizni sevishga o'rgatish, urf-odatlarimiz va milliy qadriyatlarimizni hurmat qilish, avloddan-avlodga yetkazishimiz faqat o'zimizga bog'liqdir.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022 yil 4-fevraldag'i 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan takomillashgan "Ilk qadam" o'quv dasturi.
3. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.2009
4. Sodiqova.Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". T.: "Tafakkur sarchashmalari", 2013
5. Muxsiyeva A.Sh. "Oila pedagogikasi". O'quv qo'll. T.; "TDPU".2017
6. Yakubova, Z. Z. (2022, October). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLANING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIGA PROFESSIONAL YORDAM KO 'RSATISHDA OILA, MAHALLA VA



- MAKTAB BILAN HAMKORLIK ISHLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 68-73).
7. Yakubova, Z. Z. (2023). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAXALLA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLAR HAMKORLIGI. *GOLDEN BRAIN*, 1(15), 141-147.
8. Yakubova, Z. Z. (2023). NATIONAL VALUES OF PRESCHOOL CHILDREN BASICALLY FORMING EDUCATIONAL AND MORAL QUALITIES. *European International Journal of Pedagogics*, 3(01), 51-55.
9. SH Sadikova. TYPES AND CONTENT OF PICTURE ACTIVITY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Science and Innovation. 2022. 760-764.